



TOSHKENT SHAHRIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - mart*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **31751** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprelga nisbatan **4 299** taga kamaygan (o'sish sur'ati **88,1** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **368** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **31 383** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- mart oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **15392,2** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **109,4** % ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **6169,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9222,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **123,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **449,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,2** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	15 392,2	109,4	6 169,8	111,7	9 222,3	123,4
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	1 380,4	280,5	93,6	127,6	1 100,0	115,7
Bektemir	612,2	122,5	39,8	91,3	489,7	133,8
Yunusobod	1 724,6	827,0	297,5	149,0	897,6	111,2
Mirzo-Ulug'bek	996,4	486,5	145,1	127,1	509,8	121,2
Mirobod	1 311,1	638,5	183,9	110,7	672,6	126,5
Shayxontoxur	1 589,2	693,9	222,9	123,8	895,3	127,6
Olmazor	1 337,3	588,4	186,0	107,8	748,9	122,4
Sergeli	835,6	398,1	133,9	112,3	437,6	121,0
Yakkasaroy	1 412,4	642,1	183,1	99,3	770,3	127,9
Yashnobod	1 210,5	503,2	170,5	114,8	707,3	130,6
Yangihayot	202,6	84,2	24,3	218,5	118,4	123,7
Chilonzor	2 779,8	904,8	263,8	84,5	1 875,0	126,7

2023- yilning yanvar - mart oylarida 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**136,9 %**), Yunusobod (**116,7%**), Mirzo Ulug'bek (**115,4%**) va Yashnobod (**114,5%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - mart, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,4%** ni yoki **15 392,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)

(2022- yil, 2023- yil yanvar – mart oylari)



2023- yilning yanvar - mart oylarida o'sish sur'ati 109,4% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **18,1 %** bilan **2 779,8 mlrd.** so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,3 %** bilan **202,6 mlrd.** so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **15 392,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – mart oylariga nisbatan **109,4** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **59,9** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – mart oylariga nisbatan **123,1** % ga o'sdi va **3 896,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **40,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**12,2 %**), Uchtepa (**7,1 %**) va Yunusobod (**5,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **40,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**14,7 %**), Yunusobod (**13,4 %**), Shayxontoxur (**11,2 %**), Yakkasaroy (**10,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	5 187,3	106,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	4 688,9	102,9
Bektemir	10 874,5	101,7
Yunusobod	4 682,5	114,1
Mirzo-Ulug'bek	3 075,2	112,0
Mirobod	8 752,3	108,1
Shayxontoxur	4 399,8	114,7
Olmazor	3 376,2	104,8
Sergeli	5 123,5	98,4
Yakkasaroy	11 051,5	102,9
Yashnobod	4 157,1	109,9
Yangihayot	1 245,2	128,3
Chilonzor	10 205,0	98,8

2023- yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 187,3 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 106,0 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Bektemir (**5 146,6** ming. so'm), Yakkasaroy (**3 283,9** ming. so'm) va Mirobod (**2 297,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **449 942,2** mln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar - mart oylariga nisbatan **4,2 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **430031,1** mln. so'mni (95,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **19 911,1** mln. so'mni tashkil etdi (4,4 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar. tumanlar:	449942,2	104,2	425151,2	120,9	24791,0	104,6
Uchtepa	41131,2	97,5	52230,6	312,4		
Bektemir	74281,9	117,6	93699,0	154,3		
Yunusobod	58192,7	111,9	93778,4	119,5		
Mirzo-Ulug'bek	45254,3	101,1	46201,8	65,0		
Mirobod	22910,4	94,2	18043,5	460,7		
Shayxontoxur	41788,1	120,8	83054,8	201,3		
Olmazor	18986,0	57,3	8280,2	57,3	17,6	85,4
Sergeli	18542,7	76,4	13025,8	114,4		
Yakkasaroy	30902,4	97,0	6507,5	52,7		
Yashnobod	56419,3	151,0	8021,4	27,8		
Yangihayot	3330,5	108,2	0,0			
Chilonzor	38202,6	93,6	2308,2	18,6	24773,4	104,6

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;










– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - mart oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **425 151,2** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**205 493,9** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	205493,9
	Non va non mahsulotlari	31499,1
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	44617,9
	Tovuq go'shti	49669,6
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	3 600,0
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	12342,0
	Tuxum	14488,1
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	1011,5
	Ziravorlar	30246,33
	Tuzlamalar	23041,0
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	6423,1
	Nooziq-ovqat tovarlari	6318,6

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar – mart oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **24791,0** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **20 327,3** mln.so‘m, qo‘y va echkilar – **3836,4** mln. so‘mni, otlar – **609,7** mlrd. so‘mni, parrandalar – **17,6** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	16030,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	2290,4
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	2006,9
	Qo‘ylar	3746,9-
	Otlar	609,7
	Echkilar	89,5
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	9,3
	Tovuqlar	8,3
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 507** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan **1637** taga kamaygan va o'sish sur'ati **73,4 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **35** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 472** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar - mart oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, **1 348,4,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,5 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **60,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1 348,4	107,5	538,5	130,3	809,8	118,0
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	39,2	102,9	-	-	39,2	127,9
Bektemir	32,2	118,3	18,6	158,3	13,6	107,8
Yunusobod	173,1	101,1	54,7	121,8	118,4	114,9
Mirzo-Ulug'bek	121,9	102,2	10,6	190,6	111,3	119,9
Mirobod	96,9	107,9	17,7	119,8	79,2	129,4
Shayxontoxur	364,2	105,8	274,4	116,5	89,9	101,3
Olmazor	77,6	101,1	6,5	142,2	71,1	120,8
Sergeli	120,2	157,4	96,1	200,2	24,0	103,9
Yakkasaroy	95,2	101,3	7,9	91,7	87,3	125,4
Yashnobod	105,9	102,6	34,7	108,1	71,2	122,8
Yangihayot	19,5	106,5	-	-	19,5	131,9
Chilonzor	102,4	106,9	17,3	261,5	85,1	117,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **4 254,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **109,3** % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 229,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **123,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **2 025,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **104,2** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	4 254,6	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	150,4	3,5
Bektemir	207,6	4,9
Yunusobod	729,3	17,1
Mirzo-Ulug'bek	203,6	4,8
Mirobod	192,3	4,5
Shayxontoxur	324,9	7,6
Olmazor	27,2	0,6
Sergeli	1 517,0	37,5
Yakkasaroy	344,0	8,1
Yashnobod	238,9	5,6
Yangihayot	109,0	2,6
Chilonzor	210,5	4,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**1517,0** mlrd. so'm), Yunusobod (**729,3** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**344,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Toshket shahri bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **24 697,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,3 %** ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **15 426,2** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,5 %** ga to'g'ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **62,5 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Yangihayot (**7,6 b.**), Mirobod (**6,2 b.**) va Mirzo Ulug'bek (**5,4 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **14 220** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **418** taga kamaygan, o'sish sur'ati **97,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **189** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **14031** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	24697,4	106,3	2 870,9	111,1	15426,2	103,5
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	1 765,3	98,5	109,7	100,6	1 655,7	98,4
Bektemir	286,3	113,1	24,7	1 361,8	261,6	104,1
Yunusobod	2 655,8	110,8	871,6	113,5	1 784,2	109,6
Mirzo-Ulug'bek	1 868,6	100,0	343,5	95,4	1 525,1	101,1
mirobod	2 061,9	107,8	569,7	126,2	1 492,3	102,1
Shayxontoxur	1 535,4	117,0	383,1	142,6	1 152,3	110,5
Olmazor	4 288,6	110,2	2 198,3	111,3	2 090,3	109,0
Sergeli	1 192,9	94,3	495,8	102,0	697,2	89,5
Yakkasaroy	2 981,5	114,1	1 641,3	143,2	1 340,2	91,4
Yashnobod	3 146,0	108,3	1 677,8	111,3	1 468,2	105,2
Yangihayot	110,8	147,3	61,6	217,6	49,2	104,9
Chilonzor	2 804,2	94,8	894,1	72,2	1 910,0	111,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Тел. 71-202-88-21 (20)**